



HOMILADA LAB VA TANGLAY YORIQLARINING PAYDO BO'LISH SABABLARI

**Nurmatova Dilnoza Mutafoqulovna¹, Kamolov Abdulla Murodovich²,
Maxmudov Umid Maxmudovich³**

^{1,2,3}Samarqand davlat tibbiyot instituti akademik litseyi biologiya fani
o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5866186>

Kalit so'zlar: Patalogik belgilar, "Quyvon lab", "Bo'ri tanglay", ekzogen omillar, endogen omillar

Annotatsiya: Homilada lab va (yoki) tanglay yoriqlarining paydo bo'lishi ota-onalar uchun yangi avlodni parvarishlarda turli xil noqulayliklarni paydo qiladi. Shuning uchun ushbu maqolada bu kabi nuqsonlarni paydo bo'lish sabablarini bilish va uni oldini olish juda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan

Yuqori labning tug'ma kemtikligi ("quyon lab") -bu yuqori lab yumshoq to'qimasining bir yoki ikki tomonlama turli darajada namoyon bo'ladigan tug'ma nuqsonidir. Nuqson homila rivojlanishidagi patologik o'zgarishlar natijasida paydo bo'ladi.

Yuqori lab va tanglayning tug'ma yoriqlari odamlarda uchraydigan jami anomaliyalarning 20-30 foizini, yuz va yuz-jag' sohasidagi anomaliyalarning esa 86 foizini tashkil etadi. Aholi orasida ushbu kasallikning uchrash chastotasi mamlakatga va mintaqaga bog'liq bo'lib, 1:1000 dan 1:300 ga teng bo'ladi. Kasallik statistikasida yuqori lab va tanglayning bir tomonlama yoriqlari 60-80 foiz, ikki tomonlama yoriqlari 15-25 foizni tashkil etadi. Bu nuqsonlar yuz-jag' sohasidagi boshqa anomaliyalar bilan deyarli birga uchramaydi [1].

Bunday tug'ma yoriqlarning embriogeneza va irsiyatga ta'siriga ko'ra, kelib chiqishi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillarga bog'liq.

Ekzogen sabablar:

-teratogen omillarning homilaga ta'siri (homilaning noto'g'ri rivojlanishiga olib keladigan atrof-muhit omillari): ionlashtiruvchi nurlar, kimyoviy moddalar, giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar, dorilar va zahar.

-avitaminoz


-patogen mikroflora (stafilokokk, anaerob flora, viruslar va boshqalar) ta'siri

-ekstremal termik omillar

-qorin sohasini shikastlanishi, mexanik travma

-ruhiy travma va homilaning shakllanishiga salbiy ta'sir etuvchi boshqa omillar.

Uzoq vaqt davomida mutaxassislar bunday kasalliklarning rivojlanishi ayolning homiladorlik paytida chekishi bilan bog'liq deb taxmin qilishgan.





Reuters xabariga ko'ra, bu xulosa Michigan universiteti olimlari tomonidan yuzning qo'pol anomaliyasi bo'lgan bolalar tug'ilishi bilan yakunlangan ikki mingdan ortiq homiladorlik davrini to'liq baholash asosida tasdiqlangan. Xususan, lab va tanglay yorilishi bo'lgan bolaga tug'ilish ehtimoli aniqlanilgan. Homiladorlik paytida chekkan ayol homilasida anomaliyaning rivojlanishi chekadigan sigaretalar soniga bog'liq. Masalan, agar homilador ayol kuniga birdan 10 tagacha sigareta chekadigan bo'lsa, u tug'ilgan bolada yuz-jag' sohasining tug'ma nuqsonlari xavfi chekmaydigan ayolnikiga qaraganda 30 foizga yuqori. Agar har kuni chekilgan sigaretalar soni 21 tadan oshsa, bu ehtimollik 70% gacha ko'tariladi. [3].

Endogen omillarga irsiyat, jinsiy hujayralarning biologik jihatdan to'laqonli bo'lmasligi, ona organizmidan yuqadigan yuqumli kasalliklar (skarlatina, qizamiq, toksoplazmoz va boshqalar) va abortlar kiradi [2]. Homiladorlikning boshida toksik omillarning ta'siri ayniqsa xavflidir, ammo, irsiyat ham muhim ahamiyatga ega. Daniya tibbiyot arxividagi 10 yil davomidagi ma'lumotlarga ko'ra, agar ota-onalardan birida tug'ma yoriq bo'lsa, unda ushbu patologiyaga ega bolani tug'ilish ehtimoli 2% ni tashkil qiladi, ammo agar ota-onalardan biri va to'ng'ich bolada yoriq bo'lsa, unda ikkinchi bolada kasallik ehtimoli 15 foizni tashkil qiladi. Braziliyalik plastik jarroh Ivo Pitangi 1967 yilda ota va uning beshta bolasida lab va tanglay yoriqlari bo'lgan oilani tasvirlab bergan [3].

Xulosa qilib aytganda, tug'ma lab va tanglay yorig'i bo'lgan bolalar sonini kamaytirishning eng samarali usuli bu, homilador ayollarda chekishga qarshi kurashdir. Bo'lajak onalarga chekishning zararini to'g'ri tushuntirish va tushuntirish ishlarini keng targ'ib qilish tug'iladigan chaqaloqlarning sog'lom bo'lib tug'ilishiga asos bo'ladi hamda o'lik tug'iladigan chaqaloqlar, kam vaznli, muddatidan ilgari tug'ilgan chaqaloqlar sonini kamayishiga yordam beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Козин И.А. Эстетическая хирургия врождённых расщелин лица. — М.: Мартис, 1996.
2. Тимофеев А.А. Руководство по челюстно-лицевой хирургии и хирургической стоматологии. — Киев: Червона Рута-Туре, 2002.
3. Chiu T.W., Burd A. Key topics in plastic and reconstructive surgery. — London, New York: Taylor & Francis, 2005

